

Nilufar Jumanazarova

Namangan viloyati Tòraqòrgon tumani 39 – maktab òqituvchisi

Ne’matullayeva Mahliyo Nasimjon qizi

Buxoro Davlat universiteti 2- bosqich talabasi

Annotatsiya: *Aholi òrtasida “Zakovat” òyinlarini boshqa intellektual òyinlarlarni ommalashtirish.*

Kalit sòzlar: *jumboq, zakiy, faylasuf, jamoa, fikr, intellektual*

Charxning kòrmagan qanchadan qancha olim-u fozillari, buyuk-u daholari qolmadi. Har birining ilmini zamon deganlari chiğiriğidan òtkazyapdiki, ular mukammal ekanidan zamon òtsa òtyapdi ham u bilimlar òtmadi. Yangi daqiqalar, yangi zamonlar bilan birga bilimning yangi sirlari ham yangi daholari bilan birga paydo bòlmoqda. Bu olamning jumboği kòp. Bu jumboqlarni ochishga esa yana bir Konfutsiy-u, Aflotunlar kerak. Oldingi davrlarda barmoq bilan sanarli dohiylar bòlsa, bugungi kunda unday donolarni “Zakovat”da kòplab uchratmoqdamiz. Bir necha yillardan buyon òtkazilib kelinayotgan ushbu intellektual òyin bugungi kunga kelib ashaddiy muhlislarini topib ulgurdi. Eng katta yutuqlaridan biri, “Zakovat”ning ilk òyinlarida ishtirokchilar katta yosh toifasidagilar hisoblanga bòlsa, yildan yilga mukammallashib, yoshlarni jumladan maktab òquvchilarini ham keng qamrab oldi. Mana shunday zukko yoshlar qatorida Tòraqòrgon tumanida joylashgan 39 – maktab yoshlari ham borligi bizni gòyat xursand qildi. Maktabni ikkinchi uyimiz deb e’tirof etar ekanmiz, ushbu dargohdagi farzandlarimiz nafaqat fanni, dunyoqarashlarini boyitib borish uchun turli sohalarga oid qiziqarli faktlar ham òrganib borishayotgani, mantiqiy fikrlash qobiliyatlari ham bu borada òsib borayotgani bizni ruhlantira oladigan eng katta motivatsiya desak bòladi. Chunki, fikrlashni boshlagan inson har sohada liderlikka erishishiga shubha yòq. “Fikrlar narsalarni yaratadi”, - deganlaridek, bu sohaga qiziqishi katta bòlgan yoshlarimizning talablarini inobatga olgan holda darsning siyosiy daqiqasini yangiliklar bilan birga “Zakovat” savollari bilan boyitib borishimiz guruhdagi sust òquvchilarning “jonlanish”iga sabab bòlmoqda. Ilk qadamni shunday qisqa daqiqalardan boshlagan òquvchilarimiz endilikda sektor, tuman bosqichlarida ham òz jamoalarini tuzgan holda faol ishtirok etib kelmoqdalar. Jamoada maktabning turli yoshdagi òquvchilari borligi olib borilayotgan ushbu harakatlarimiz katta-yu kichikni teng qamrab olgani, bir biridan qolishmay dòstona bellashib, bilimlari har sohada boyiyotganidan dalolatdir. Endi ular sevimli gòshalariga majburiyta’lim uchun oğrinib emas, qiziqarli darslardan ham zavq, ham ilm olishga oshiqadilar. Bunday shijoatga boy buyuklar farzandi kelajakda ajdodlaridek ilmlari bilan dunyoni zabt etishlariga ishonamiz. Zakovat" intellektual o‘yinini aholi o‘rtasida ommaviy-ma’rifiy

harakatga aylantirish va boshqa intellektual o‘yinlarni rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarori imzolandi. Prezidentimiz yoshlar uchun bu sohani ham chetlab o‘tmadilar. Bu intellektual o‘yin ishtirokchilari qayso soha vakili b‘olishidan qat‘iy nazar ularga k‘oplab qulayliklar, sovg‘alar ajratildi. Toshkent shahrida “Intellektual o‘yinlar bog‘i”ni tashkil etish rejasi, “Zakovat” stipendiyasi va yoshlarni intellektual salohiyatini oshirish uchun Nobel mukofoti sovrindorlari bilan uchrashuvlar tashkil etish rejasi har bir yoshga o‘zgacha faxr – iftixor tuyg‘usini baxsh etadi.

2021- yil oktyabr oyida davlatimiz rahbari Buxoro viloyati Romitan tumanida “Zakovat” intellektual o‘yining final bosqichiga tashrif buyurib, bahsni kuzatgan, tadbir so‘ngida nutq so‘zlab, bilimdon yoshlarga k‘oplab tashabbuslarni bildirgan edi. “Intellektual haftalik”larning tashkil etilishi yoshlarni nafaqat bellashublarda, undan tashqari vaqlarda ham aqlarini charxlab borishlariga sabab b‘oladi. Miya pichoq kabidir undan qancha foydalansang shuncha charxlanib boraveradi, foydalanilmasa zanglaydi. Aksiga olib, insoniyat o‘ziga berilgan miya imkoniyatlarini faqat 5 foizinigina ishlatadi xolos. Aqlimiz kunlik charxlanishlar s‘ong o‘tkir pichoqqa aylanar ekan, keskir aqlimiz bilan har qanday kuchga bas kela olamiz. Bizning charxlovchimiz mohir, ustamizning q‘oli gul, sopimiz-da mustahkamdir. Eng quvonarli jihati shundaki, qurolimiz mustahkamligidan na sindirishga, na tortib olishga kuchlari yetadi. Biz bu o‘tkir qurol(aql)imiz bilan dunyoni zabt etib, “sarkazdamiz”ning mehnatlarini oqlagaymiz.

Xulosa: “Zakovat” intellektual o‘yini bugungi kunda har bir yosh-u qarini, har bir kasb, soha egasini o‘zining sirliligi, mukammalligi bilan ajralib turadi. Bu makammallik har bir ishtirokchiga yuqib, y‘onalishidan qat‘iy nazar har sohada mukammallashib bormoqda va yurtboshimiz orzu qilgan har sohada yetuk 3-renesans vakillari shakllanmoqda. Bu , albatta, behad quvonarli. Chunki, Navoiy bobom, Bobur bobom deb k‘oksiga urib faxrlanib yurish o‘z y‘oliga, o‘zi ham mana shunday sari q‘o‘rqmay qadam tashlay olishi ham boshqa bir masaladir. Biz 3-renesansga qadam q‘oya olgan ekanmiz, kelajak avlodimizning kelajak avlodlariga ham 4-,5-,6-.....renesanslarni poydevori b‘olishiga zamin yaratilib, faqatgina olis, milliard yillik tarix bilan emas, yaqin tarix bilan faxrlana oladigan o‘tmish barpo etamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Prezident farmonlari
2. “Alkimyogar” Paolo Koelo